



## Buxoro viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 097 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 65 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 032 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-aprel oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 6 667,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 107,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 734,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 119,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 932,5 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 853,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 110,6 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 197 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 26 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 171 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 5 834,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 14,3 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 3 066,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 90,8 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 52,6 % ni tashkil qildi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qorovulbozor (668,4 m.), Vobkent (3,2 m.), Jondor (2,3 m.), G'ijduvon (171,6 %) tumanlarida va Buxoro shahar(143,4 %) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 539 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 534 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-aprel oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 3 252,8 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 90,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

### Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





#### **IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### **V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

|                                                                          |                                                                            |                                                                                                                                                                                          |                                                          |
|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga masul:</b><br>Xizmatlar va savdo statistikasi<br>bo'limi | <b>Boshqarma boshlig'i:</b><br>U.Djumanazarov<br>Tel: +998655058000 (8001) | <b>Ijrochi:</b> Z.Saidova<br>Tel: +998(65) 505-80-00<br>(8040)<br>e-pochta: <a href="mailto:info@buxstat.uz">info@buxstat.uz</a><br><a href="mailto:buxstat@exat.uz">buxstat@exat.uz</a> | <b>Manzil:</b> 100170, Buxoro sh.,<br>S.Ayni ko'chasi, 3 |
|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|

